

## TABIATNI MUHOFAZA QILISHDA SUN’IY INTELLEKT ROLI: HOZIRGI ZAMON INNOVATSİYALARI

**Kamiljanova Sevara G‘ayrat qizi**

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining o’simliklar va hayvonlarni muhofaza qilishdagi roli yoritilgan. Maqolada sun’iy intellekt yordamida ekologik monitoring, yovvoyi hayvonlarni kuzatish, o’rmonlarni himoya qilish hamda qishloq xo’jaligidagi samarali yechimlar tahlil qilingan. Shuningdek, real misollar orqali sun’iy intellekt algoritmlarining atrof-muhitni muhofaza qilishdagi dolzarb amaliyotlari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari sun’iy intellektidan foydalanish tabiatni saqlash va ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o’ynashini ko’rsatmoqda.

**Kalit so’zlar:** Sun’iy intellekt, ekologiya, tabiatni muhofaza qilish, ekologik monitoring, dron texnologiyalari, yo’ldosh tasvirlari, atrof-muhit, o’simliklarni saqlash, hayvonlarni himoya qilish, innovatsiyalar.

Tabiatni muhofaza qilish bugungi kunda insoniyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Atrof-muhitning ifloslanishi, iqlim o’zgarishi va biologik xilmallikning kamayishi kabi muammolar global miqyosda dolzarb hisoblanadi. Ushbu muammolarni hal qilishda zamonaviy texnologiyalar, xususan, sun’iy intellekt muhim rol o’ynamoqda. Sun’iy intellekt yordamida katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, prognozlash va samarali yechimlar ishlab chiqish imkoniyati mavjud. Akademiklar sun’iy intellektning jamiyat taraqqiyotidagi o’rni va uning foydali hamda zararli jihatlari haqida turli fikrlarni bildiradilar. Masalan, Toshkent farmatsevtika instituti o’qituvchilari A.A. Kozimjonovich va P.A. Anvarovich sun’iy intellektning rivojlanishi inson hayotida katta ahamiyat kasb etishini ta’kidlab, uning jamiyat taraqqiyotidagi rolini va ijobjiy hamda salbiy tomonlarini tahlil qilganlar. Ushbu maqolada tabiatni muhofaza qilishda sun’iy intellektning roli va uning hozirgi zamon innovatsiyalaridagi o’rni ko’rib chiqiladi.

Ekologiya sohasida ekologik monitoring tushunchasi muhim ahamiyatga ega. Ekologik monitoring atrof-muhitning holatini doimiy ravishda kuzatish va baholash jarayonidir. An’anaviy usullar ko’pincha vaqt va resurs talab etadi. Sun’iy intellekt esa ushbu jarayonni tezlashtirish va aniqligini oshirish imkonini beradi. Masalan, sun’iy yo’ldosh tasvirlarini tahlil qilish orqali o’rmonlarning kesilishi, suv havzalarining ifloslanishi yoki cho’llanish jarayonlarini aniqlash mumkin. Sun’iy intellekt algoritmlari katta hajmdagi tasvirlarni qisqa vaqt ichida tahlil qilib, o’zgarishlarni aniqlash va prognozlashda yordam beradi. Sun’iy intellekt texnologiyalari hayvonlar va o’simliklarning signallarini tushunish va tahlil qilishda, shuningdek, o’simliklarning o’sish jarayonlarini kuzatish va stress holatlarini aniqlashda ham qo’llanilmoqda.

Sun’iy intellekt yordamida o’simliklarning suratlari tahlil qilinib, kasalliklar erta bosqichda aniqlanadi. Bu esa kasalliklarning tarqalishini oldini olish va hosildorlikni

oshirishga yordam beradi. Dronlar va sun`iy intellekt yordamida yovvoyi hayvonlarning harakati kuzatilib, ularning yashash muhiti va populyatsiyasi haqida ma’lumot to`planadi. Bu usul orqali xavf ostidagi turlarni muhofaza qilish strategiyalari ishlab chiqiladi. O`rmonlarda o`rnatilgan kameralar sun`iy intellekt yordamida tahlil qilinib, hayvonlarning harakati va soni haqida aniq ma`lumotlar olinadi. Bu ma`lumotlar asosida muhofaza qilish choralarini rejalashtiriladi. Sun`iy intellekt texnologiyalari o`simliklar va hayvonlarning muhofaza qilishda samarali vosita bo`lib, atrof-muhitni saqlash va biologik xilma-xillikni himoya qilishda katta ahamiyatga ega.

Qishloq xo`jaliklarida ham sun`iy intellektlarning qo`llanilishi ijobiy natijalarga olib keldi. Sun`iy intellekt qishloq xo`jaligida aniq dehqonchilik usullarini joriy etish orqali hosildorlikni oshirish va resurslardan samarali foydalanishga yordam beradi. Masalan, sun`iy intellekt yordamida tuproqning holati, namligi va ozuqa moddalarining miqdori tahlil qilinib, ekinlarni sug`orish va o`g`itlash rejasi opyimallashtiriladi. Bu esa suv va o`g`itlarning isrof bo`lishini kamaytiradi va atrof-muhitga salbiy ta`sirini minimallashtiradi.

Hozirgi kunda global muammolardan biri- iqlim o`zgarishi bo`lib, uning oqibatlarini oldindan prognozlash va boshqarish muhim ahamiyatga ega. Sun`iy intellekt katta hajmdagi iqlim ma`lumotlarini tahlil qilish orqali kelajakdagagi o`zgarishlarni prognozlashda yordam beradi. Bu esa hukumatlar va tashkilotlarga moslashuv strategiyalarini ishlab chiqishda asos bo`lib xizmat qiladi. Masalan, sun`iy intellekt yordamida ekstremal ob-havo hodisalarini oldindan bashorat qilish va ularga tayyorgarlik ko`rish imkoniyati mavjud. O`rmonlar sayyoramizning “o`pkasi” bo`lib ular karbonat angidridni yutish va kislorod ishlab chiqarishda muhim rol o`ynaydi. Sun`iy intellekt o`rmonlarning kesilishi va noqonuniy daraxt kesishlarni aniqlashda samarali vosita hisoblanadi. Sun`iy yo`ldosh tasvirlari va dronlar yordamida olingan ma`lumotlar sun`iy intellekt algoritmlari orqali tahlil qilinib, o`rmonlarning holati va ulardagi o`zgarishlar aniqlanadi. Bu esa tegishli choralarini ko`rish va o`rmonlarni muhofaza qilishda muhim ahamiyatga ega.

Insoniyat uchun eng muhim tabiiy boyliklardan biri – suv resurslaridir. Sun`iy intellekt suvning sifatini monitoring qilish, suv iste`molini optimallashtirish va suv resurslarini boshqarishda qo`llanilmoqda. Masalan, sun`iy intellekt yordamida suv havzalarining ifloslanish darajasi aniqlanib, tegishli choralar ko`riladi. Shuningdek, suv ta`minoti tizimlarida sun`iy intellekt algoritmlari suv oqimini boshqarish va yo`qotishlarni kamaytirishga yordam beradi. Sun`iy intellekt texnologiyalari tabiatni muhofaza qilish va atrof-muhitni saqlashda katta imkoniyatlarga ega. Ekologik monitoring, hayvonlar va o`simliklar bilan muloqot, qishloq xo`jaligi, iqlim o`zgarishini prognozlash, o`rmonlarni muhofaza qilish va suv resurslarini boshqarish kabi sohalarda sun`iy intellekt innovatsiyalari samarali yechimlar taklif etmoqda. Ushbu texnologiyalarni to`g`ri va ma`suliyatli qo`llash orqali biz tabiatni muhofaza qilishda yangi yutuqlarga erishishimiz mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

- 1)Rayimjonov X.G’. “Sun’iy intellekt va ekologiya”. Milliy Ilmiy Portali.2022
- 2)“Sun’iy intellekt va ekologiya”, Flip Book
- 3)“Sun’iy intellekt va ekologiya- Dayjest”. Milliy Ilmiy Portali
- 4)“Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi”. ZiyoNET
- 5)“Tabiatni muhofaza qilish”. Wikipedia